

INFEKSION KASALLIKLARDAN SO'NG QON DONORLARIDA MINERAL VA VITAMINLAR ALMASHINUVINI TADQIQ QILISH

Jo'rabayev Mahsudjon Murodullayevich

Namangan viloyati qon quyish markazi

Klinik diagnostik laboratoriya bo'limi mudiri

Email: maks.djurayev@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21387932>

Annotatsiya

Barchaga ma'lumki dunyo mamlakatlari kundan – kunga rivojlanib taraqqiy etib borayotga bir vaqtda infeksiyon kasalliklarning rivojlanishi va tarqalishi ham o'sishda davom etmoqda. Viruslar atrof muxitga moslashuvchan yangi chidamli avlodlarini chiqarib, turli yo'llar bilan havo, suv, tuproq, oziq ovqat va boshqa kundalik ehtiyoj vositalari yordamida inson organizmiga kirib o'z xususiyatlarini namoyon qilib bormoqda. Bu esa qon xavfsizligini oldini olish uchun ko'rilayotgan chora tadbirlarni yanada kuchaytirishni talab etadi.

Аннотация

Как всем известно, по мере развития и прогресса стран мира день от дня увеличивается и распространение инфекционных заболеваний. Вирусы порождают новые устойчивые поколения, адаптированные к окружающей среде, и проникают в организм человека различными путями через воздух, воду, почву, пищу и другие предметы повседневного обихода, проявляя свои свойства. Это требует дальнейшего усиления мер по обеспечению безопасности крови.

Annotation

As everyone knows, as countries around the world develop and progress, the spread of infectious diseases increases daily. Viruses are generating new, resistant generations, adapted to the environment, and enter the human body through various routes—air, water, soil, food, and other everyday objects—expressing their properties. This requires further strengthening of measures to ensure blood safety.

Kalit so'zlar: o'ta xavfli infeksiya OIV, gepatit B va C, Rw, brutsellyoz va bezgak, Gripp, koronavirus, qizamiq, irsiy kasallik, qon quyish, neytrofil (N), limfotsit (L), trombosit (PLT) va neytrofil-limfotsit nisbati (NLR), RBC, Hb, xelyoz, ALT, MCV, WBC, mindray BAA 88A, IFA, korrelyatsiya

Ключевые слова: крайне опасная инфекция ВИЧ, гепатиты В и С, Rw, бруцеллёз и малярия, грипп, коронавирус, корь, наследственное заболевание, переливание крови, нейтрофилы (N), лимфоциты (L), тромбоциты (PLT) и соотношение нейтрофилов и лимфоцитов (NLR), эритроциты, Hb, хелатирование, ALT, MCV, лейкоциты, Mindray BAA 88A, IFA, корреляция

Keywords: highly dangerous infection HIV, hepatitis B and C, Rw, brucellosis and malaria, Influenza, coronavirus, measles, hereditary disease, blood transfusion, neutrophil (N), lymphocyte (L), platelet (PLT) and neutrophil-lymphocyte ratio (NLR), RBC, Hb, chelation, ALT, MCV, WBC, mindray BAA 88A, IFA, correlation

Kirish

Qon xavfsizligi va xavfsiz transfuziya tizimini ta'minlash bugungi kunda dunyoning barcha mamlakatlari sog'liqni saqlash tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.[1] Donor

qonining sifati va xavfsizligini ta'minlash nafaqat transfuziologiyaning asosiy vazifasi, balki bemorlar hayotini saqlab qolish va davolash samaradorligini oshirishning muhim omilidir[5,6].

Qon va uning komponentlari ko'plab shoshilinch hamda surunkali klinik holatlarda hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan biologik mahsulot hisoblanadi. Xususan, og'ir travmalar, operatsiyalar, tug'ruqdan keyingi massiv qon ketishlar, og'ir anemiyalar, gemoblastozlar, suyak iligi yetishmovchiligi, irsiy gemoglobinopatiyalar (jumladan, talassemiya va o'roqsimon hujayrali anemiya), shuningdek, onkogematologik kasalliklarni davolashda qon va uning tarkibiy qisimlarini quyish ko'pincha yagona samarali davolash usuli hisoblanadi.[4] Bundan tashqari, bezgak, og'ir ovqatlanish yetishmovchiligi va boshqa kasalliklar oqibatida rivojlangan og'ir anemiyalarda ham transfuziya bemor hayotini saqlab qolishda muhim o'rin tutadi.[6]

Tadqiqotning maqsadi

Infeksion kasalliklardan so'ng qon donorlarida mineral va vitaminlar almashinuvining holatini kompleks klinik-laborator hamda statistik usullar asosida baholash, jigar funksiyasi (ALT), yallig'lanish faolligi (CRP), gematologik ko'rsatkichlar (Hb, RBC, WBC, HCT) va mikroelementlar hamda vitaminlar (temir, rux, magniy, kalsiy, vitamin C, vitamin D va vitamin B12) darajasidagi o'zgarishlarning xususiyatlarini aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligi va metabolik o'zgarishlarning patogenetik qonuniyatlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Shuningdek, infeksiion kasalliklarning donor organizmidagi mikro- va makronelementlar almashinuviga ta'sirini baholash, laborator biomarkerlar o'rtasidagi korrelyatsion va regressiv bog'liqliklarni aniqlash, metabolik buzilishlarning donorning funksional holati hamda transfuziologik xavfsizlikka ta'sirini baholash, olingan natijalar asosida donorlarni tibbiy kuzatish, metabolik holatini monitoring qilish va tiklanish davrini optimallashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish tadqiqotning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Natijalar va ularning taxlili

Tadqiqot doirasida vitamin va mineral moddalar miqdori sog'lom hamda infeksiion kasallik davridagi ko'rsatkichlar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Infeksiion kasallikdan so'ng olingan namunalardagi natijalar sog'lom donorlar ko'rsatkichlari bilan taqqoslanib, vitamin va mineral moddalar miqdorining kamaygani hamda infeksiion kasallikning organizmdagi normal fiziologik jarayonlarga salbiy ta'siri o'rganildi, natijalar asosiy guruhda yengil darajadagi anemik o'zgarishlar shakllanganini va bu holat infeksiyadan keyingi metabolik hamda gematologik buzilishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.[3]

Korrelyatsion tahlil natijalari vitamin va mineral almashinuvidagi o'zgarishlar gematologik ko'rsatkichlar, immun holat hamda donorlarning funksional salomatligi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Bu esa infeksiion kasalliklardan keyingi davrda donorlarning metabolik holatini kompleks baholash va korreksion profilaktik choralarini ishlab chiqish zarurligini asoslaydi.

Xulosa

Tadqiqot ishi natijalari shuni ko'rsatadiki, infeksiion kasalliklarni boshdan kechirgan qon donorlarida gematologik, biokimyoviy hamda immunoferment tahlil ko'rsatkichlarida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Olingan natijalar ushbu donorlar qonida ayrim muhim vitamin va mineral moddalar miqdorining kamayganligini hamda bu holat organizmdagi metabolik va fiziologik jarayonlarga salbiy ta'sir ko'rsatishini namoyon etdi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari infeksiion kasalliklardan keyingi davrda qon donorlarining metabolik holatini kompleks baholash zarurligini ko'rsatadi. Donorlarni saralash va kuzatish jarayonida vitamin-mineral xolatini aniqlash, profilaktik korreksiya choralari qo'llash

hamda individual reabilitatsion yondashuvlarni ishlab chiqish donorlar salomatligini saqlash va donorlik qonining sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

- 1.Center of Clinical Laboratory, The First Affiliated Hospital of Soochow University, Suzhou, China
2. The role of nutritional factors in acute respiratory tract infections. Kayla Furlong Master of Science Department of Nutritional Sciences University of Toronto 2015
3. Minerals and Human Health: From Deficiency to Toxicity. Mohammed S. Razzaque 1 and Sunil J. Wimalawansa 2,* 1 Department of Medical Education, University of Texas, Rio Grande Valley, Edinburg, TX 78520, USA; msr.boston@gmail.com 2 Cardiometabolic Institute, Brunswick, NJ 08902, USA
* Correspondence: suniljw@hotmail.com
4. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining qarori “qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to'g'risida”gi o'zbekiston respublikasi qonunini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 2014-yil 27-noyabr,324-sonli qarori
5. O'zbekiston Respublikasida donorlar va uning tarkibiy qismlari xavfsizligini taminlash to'g'risidagi 2004 yil 22 dekabrda N° 42 sonli qarori
6. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2016 yil 10 avgustdagi N° 352 sonli qarori